



UDK: 101.1:316.48

Nafisa YESENKULOVA,
Mustaqil tadqiqotchi, Shahrisabz davlat pedagogika instituti, Shahrisabz, O'zbekiston
E-mail: nafis2402@icloud.com

Renessans ta'lim universiteti professori, f.f.d T.Jurayev taqrizi asosida

IJTIMOYIY ZIDDIYATLARGA DOIR IJTIMOYIY-FALSAFIY, NAZARIY KONSEPSIYALAR VA YONDASHUVLARNING MAZMUN VA MOHIYATI

Аннотация

Mazkur maqolada ijtimoiy ziddiyatlarga doir ijtimoiy-falsafiy, nazariy konsepsiyalar va yondashuvlarning mazmun va mohiyati ochib berilgan. Shuningdek, unda ijtimoiy ziddiyatlar - jamiyat rivoji va transformatsiyasining ajralmas qismi bo'lib, ularni nazariy jihatdan o'rganish ijtimoiy falsafa, sotsiologiya, siyosatshunoslik, psixologiya va boshqa fanlar kesishmasida yuz beradigan dolzarb masala ekanligi tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: inson, ziddiyat, ijtimoiy ziddiyat, funksionalizm, konfliktologiya, konsepsiya, obyekt, subyekt, sinfiylik, feministik, postmodern, globalistik, millatchilik.

СОДЕРЖАНИЕ И СУЩНОСТЬ СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКИХ, ТЕОРЕТИЧЕСКИХ КОНЦЕПЦИЙ И ПОДХОДОВ К СОЦИАЛЬНЫМ КОНФЛИКТАМ

Аннотация

В данной статье раскрывается содержание и сущность социально-философских, теоретических концепций и подходов к социальным конфликтам. Также анализируется, что социальные конфликты являются неотъемлемой частью развития и трансформации общества, а их теоретическое изучение представляет собой актуальную проблему на стыке социальной философии, социологии, политологии, психологии и других дисциплин.

Ключевые слова: человек, конфликт, социальный конфликт, функционализм, конфликтология, концепция, объект, субъект, классовая дискриминация, феминистский, постмодернистский, глобалистский, национализм.

CONTENT AND ESSENCE OF SOCIO-PHILOSOPHICAL, THEORETICAL CONCEPTS AND APPROACHES TO SOCIAL CONFLICTS

Annotation

This article reveals the content and essence of socio-philosophical, theoretical concepts and approaches to social conflicts. It also analyzes that social conflicts are an integral part of the development and transformation of society, and their theoretical study is a topical issue at the intersection of social philosophy, sociology, political science, psychology and other disciplines.

Key words: human, conflict, social conflict, functionalism, conflictology, concept, object, subject, classism, feminist, postmodern, globalist, nationalism.

Kirish. Zamonaviy voqelik sharoitida jamoat tartibi va taraqqiyoti uchun jiddiy xavf-xatarlar bilan to'la ijtimoiy bo'shliqlar kuchaymoqda. Ushbu tadqiqotning dolzarbligi va ahamiyati ijtimoiy to'qnashuvlarning siyosiy hayotga, jamoat institutlari va xavfsizlikka ta'sirini tahlil qilishdadir.

Zamonaviy jamiyat uzluksiz o'zgarishlar oqimida bo'lib, ko'pincha ijtimoiy ziddiyatlarni keltirib chiqaradigan turli qiyinchiliklarga duch keladi. Bu mojarolar nafaqat siyosat va jamiyatga, balki jamoat xavfsizligi masalalariga ham jiddiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Jamiyatning barqaror va farovon rivojlanishini ta'minlash uchun ushbu qarama-qarshiliklarning mohiyati, kelib chiqishi va oqibatlarini chuqur anglash zarur.

Ijtimoiy mojarolar jamiyat taraqqiyotining doimiy hamrohlaridir. Ularga oqilona yondashsak, mohiyatini anglab, boshqarishni bilsak, ular demokratlashtirishning kuchli turtki, ijtimoiy adolatga erishish vositasi va ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlovchi omilga aylanishi mumkin. Aks holda, bunday ziddiyatlarga e'tibor bermaslik yoki ularni hal qilishda noto'g'ri usullardan foydalanish siyosiy tizimni beqarorlashtirishi, jamiyatdagi keskinlikni kuchaytirishi va jamoat xavfsizligi darajasini pasaytirishi mumkin.

Har qanday jamiyat murakkab ijtimoiy tuzilma bo'lib, unda turli manfaatlar, dunyoqarashlar, maqsadlar va ijtimoiy maqomlarga ega guruhlar, sinflar, qatlamlar mavjud. Bu xilma-

xillikning tabiiy oqibati sifatida ijtimoiy ziddiyatlar paydo bo'ladi. Ijtimoiy ziddiyatlar - jamiyat rivoji va transformatsiyasining ajralmas qismi bo'lib, ularni nazariy jihatdan o'rganish ijtimoiy falsafa, sotsiologiya, siyosatshunoslik, psixologiya va boshqa fanlar kesishmasida yuz beradigan dolzarb masaladir.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Ijtimoiy ziddiyatlarni tushunish va ularni boshqarishga oid nazariy qarashlar tarixi uzoq davrlarga borib taqadi. Antik davrda Arastu, Platon, keyinchalik Makkiavelli, Hobbs kabi mutafakkirlar jamiyatdagi ziddiyatlar xususida o'z fikrlarini bildirgan bo'lsalar, XIX-XX asrlarda bu masala Karl Marks, Maks Veber, Georg Zimmel, Ralf Darendorf, Lyuis Kozer kabi sotsiolog va falsafiy olimlar tomonidan ilmiy asosda tahlil qilingan. Ulardan ba'zilar ziddiyatni jamiyatdagi hokimiyat va resurslar uchun kurash sifatida ko'rgan bo'lsa, boshqalar uni ijtimoiy o'zgarishlar va muvozanatni ta'minlovchi harakatlantiruvchi omil sifatida baholaganlar.

Hozirgi zamonaviy dunyoda ijtimoiy ziddiyatlar faqat milliy doirada emas, balki global darajada ham kuzatilayotgani, ijtimoiy ong, axborot maydoni va internet makonida tez tarqalayotgani, ularning oqibatida siyosiy beqarorlik, kuchli ijtimoiy polyarizatsiya va hatto fuqarolar o'rtasida ishonch

inqirozi yuzaga kelayotgani ushbu muammoning jiddiy o'rganilishini taqozo qilmoqda.

Ijtimoiy ziddiyatlar jamiyatning tabiiy bir qismi hisoblanadi. Ularning ilmiy tahlili falsafa, sotsiologiya, siyosatshunoslik, huquqshunoslik va ijtimoiy psixologiya fanlarida alohida o'rin tutadi. Ziddiyat - jamiyatdagi har qanday manfaatlar to'qnashuvining ifodasidir. U insonlar, ijtimoiy guruhlar, sinflar va institutlar o'rtasidagi qarama-qarshiliklar orqali namoyon bo'ladi. Bu munosabatlar nafaqat konfrontatsiyani, balki jamiyatdagi muvozanat, rivoj va o'zgarish manbaini ham aks ettiradi. Shu asnoda bugungi kunda ijtimoiy ziddiyatlarni o'rganishga yo'naltirilgan turlicha konsepsiyalarni tahlil qilib ko'ramiz:

Funksionalizm va konfliktologik yondashuv tarafdorlari ziddiyatlarni tabiiy va hatto ijobiy rivojlanish mexanizmi sifatida baholaydi. Jumladan, T.Parsons va B.Malinovskiy kabi olimlar ziddiyatlarni jamiyatdagi umumiy tizimning bir qismi sifatida ko'radilar. Ularga ko'ra, har qanday ziddiyat jamiyatdagi normalar va qoidalarga nisbatan munosabatdan kelib chiqadi va uning vazifasi - ijtimoiy tizimni qayta tiklash, unga moslashishni ta'minlashdir. T.Parsonsga ko'ra, "ziddiyat - bu muvozanatni tiklashdagi dinamik jarayon"[1]. Funksionalizm ziddiyatlar ijobiy funksiyalarga ega bo'lib u jamiyatni sog'lomlashtiradi, islohotlarga turtki beradi, mavjud tizimni yaxshilashga yordam beradi, degan qarashga ustunlik beriladi.

Konfliktologik maktab namoyondalaridan biri Lyuis Kozer ziddiyatni ijtimoiy o'zgarishlar va taraqqiyotning ijobiy omili sifatida baholaydi. U ziddiyatlar orqali jamiyat o'zini tanib oladi, sinovdan o'tadi va shakllanadi, deydi[2]. Ushbu qarashda ziddiyatlar jamiyatning ajralmas va doimiy harakatlantiruvchi qismi hisoblanadi.

Shu maktab vakillaridan bo'lgan Ralf Darendorf esa jamiyatni doimiy ziddiyatli tuzilma sifatida ko'radi. Unda asosiy jihat - hokimiyat uchun kurashdir. Hokimiyatga ega bo'lganlar va undan mahrum bo'lganlar o'rtasidagi to'qnashuv jamiyatni qayta shakllantiradi[3].

Ushbu konsepsiyalarda ziddiyatlardan qochish mumkin emasligi, ularni to'g'ri boshqarish lozimligi asosiy tezis hisoblanadi.

Simvolik interaksionizm konsepsiyasi vakillari Jorj Mid, Gerbert Blumerlar insonlararo munosabatlar va aloqalar darajasidagi mafkuraviy ziddiyatlarga e'tibor qaratadi. Bu nazariyada ziddiyatlar shaxslararo aloqalarda paydo bo'ladigan ma'no va belgilarga asoslangan. Ya'ni, ziddiyat subyektiv munosabatlardan kelib chiqadi va individual tafakkur, xulq-atvor modeli, ijtimoiy rollar noto'g'ri tushunilganda yuzaga keladi[4].

Ushbu konsepsiya jamiyatdagi ziddiyatlarni bartaraf etish uchun kommunikatsiyani, yaqin muloqotni va o'zaro tushunishni rivojlantirishni taklif etadi.

Sinfyilik konsepsiyasi namoyondalari ziddiyatlarni jamiyatdagi manfaatlar ziddiyati va sinfiy kurash nuqtayi nazaridan tahlil qilganlar. Bunday qarash tarafdorlaridan bo'lgan Karl Marks va Fridrix Engels ijtimoiy ziddiyatlarni jamiyatdagi sinfiy kurashning ifodasi sifatida qaraganlar. Ularga ko'ra, jamiyatdagi asosiy ziddiyat - bu ezuvchilar (boshqaruvchi sinf) va eziluvchilar (mehnatkash omma) o'rtasidagi manfaatlar qarama-qarshiligidir. Bu ziddiyat eng avvalo iqtisodiy munosabatlar asosida yuzaga keladi va uning yechimi - revolyutsiya va yangi sinfsiz jamiyatga o'tishda deb qaraladi. Karl Marks fikricha "Har bir jamiyat tarixi - bu sinfiy kurashlar tarixi"[5]. Marksizm ziddiyat destruktiv hodisa bo'lib, uning orqali yangi ijtimoiy shaklga o'tish ta'minlanadi.

Bizningcha, ijtimoiy ziddiyat - bu jamiyatda turli ijtimoiy subyektlar (individlar, guruhlar, sinflar va institutlar) o'rtasida manfaatlar, qadriyatlar, maqsadlar hamda resurslar

taqsimoti borasida yuzaga keladigan qarama-qarshiliklar tizimi bo'lib, u ijtimoiy tizimning rivojlanishi, transformatsiyasi va barqarorligiga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi murakkab ijtimoiy-falsafiy jarayondir.

Bunda, subyektlarga - ziddiyatda ishtirok etuvchi tomonlarga individlar, ijtimoiy guruhlar, sinflar, institutlar, davlat va nodavlat tuzilmalar kiradi.

Obyektlarni - ziddiyat yuzaga kelishiga sabab bo'luvchi manfaatlar, resurslar, hokimiyat, ijtimoiy maqom yoki qadriyatlar tashkil etadi.

Sababiy komponentlariga - ziddiyatni keltirib chiqaruvchi omillarga iqtisodiy tengsizlik, siyosiy raqobat, madaniy farqlar, axborot ta'siri va boshqalarni kiritish mumkin.

Ziddiyatning shakl va namoyon bo'lish nuqtai-nazaridan ochiq yoki yashirin, institutsional yoki noinstitutsonal, zo'ravon yoki zo'ravonliksiz kabi ko'rinishlari mavjud.

Funksional (vazifaviy) jihatdan ziddiyatlar jamiyatda konstruktiv - rivojlantiruvchi (Masalan, parlamentda siyosiy partiyalarning o'zaro sog'lom raqobati (ziddiyati) jamiyat ravnaqiga ijobiy ta'sir etuvchi qonunlarning qabul qilinishiga olib kelishi mumkin; Ishlab chiqarishda esa ziddiyat (raqobat) jamiyatning iqtisodiy taraqqiyotiga xizmat qiladi va x.k.), destruktiv - beqarorlashtiruvchi (noqonuniy mitinglar, ko'cha chiqishlari, to's-to'polonlar jamiyat va davlat boshqaruvini izdan chiqarishi, beqarorlashuvga olib kelishi mumkin) rolni ham bajarishi mumkin.

Tadqiqot metodologiyasi. Globallashuv, migratsiya, axborot makonining kengayishi, kiberdunyodagi ziddiyatlar, internet orqali radikallashuv va feyk axborotlarning tarqalishi - barchasi zamonaviy ziddiyatlar konsepsiyalarini qayta ko'rib chiqishni talab etadi.

21-asrdagi ijtimoiy ziddiyatlar ilgari nazariy jihatdan shakllangan modellardan farq qiluvchi xususiyatlarga ega: ziddiyatlar transmilliy tus olmoqda (masalan, migratsiya, internet radikallashuvi); ziddiyatlar individual emas, ommaviy psixologik ta'sir shaklida namoyon bo'lmoqda; axborot makonidagi ziddiyatlar real ijtimoiy inqirozlarga sabab bo'lmoqda[6].

Ziddiyatlarga tizimli va pragmatik yondashish bugungi kunda jamiyatning barqarorligi va xavfsizligi uchun zarur bo'lgan kompleks yondashuvni taqozo etadi. Bunday yondashuv ziddiyatlarning ildizini (asosiy sababini), tashqi omillar ta'sirini, ichki institutlar roli va fuqarolik jamiyati faoliyatini hisobga oladi. Bu yondashuv faqat ziddiyatni tan olish emas, balki uni ijtimoiy taraqqiyotning vositasi sifatida baholashni taklif etadi.

Odatda ijtimoiy ziddiyatlar mazmunan quyidagi shakllarda namoyon bo'ladi:

- Iqtisodiy ziddiyatlar - resurslar, ish o'rinlari, mulk, ijtimoiy tengsizlik asosida;
- Siyosiy ziddiyatlar - hokimiyat, siyosiy ishtirok va manfaatlar kurashi orqali;
- Etno-diniy ziddiyatlar - identifikatsiya, urf-odat, e'tiqodlar o'rtasidagi qarama-qarshilik orqali;
- Generatsion (avlodlar o'rtasidagi) ziddiyatlar - qadriyatlar, dunyoqarash va madaniy farqlar asosida;
- Madaniy-axborot ziddiyatlari - turli manbalar, til, internet muhiti va media ta'siri orqali[7].

Har bir shakl jamiyatning ma'lum bir sohasida tahdid sifatida namoyon bo'lishi mumkin. Ular kompleks holda tahlil qilinishi va o'z vaqtida ijtimoiy profilaktika choralarini ko'rilishi zarur.

Ijtimoiy ziddiyatlarni boshqarishning muvaffaqiyatli modellari uchun faqat tashqi choralar emas, balki ichki ma'naviy-axloqiy barqarorlik va mafkuraviy immunitet muhimdir.

Fenomenologik yondashuv (A. Shyus va P. Berger) tarafdorlari ijtimoiy ziddiyatlarni inson ongidagi tafsirlar, ma'nolar va tajribalar bilan bog'liq holda ko'radi. Ziddiyat, ularga ko'ra, obyektiv voqelikdan ko'ra, subyektiv kechinma sifatida yuzaga keladi.

P. Berger va T. Lukman o'zining "Ijtimoiy voqelikning ijtimoiy konstruksiyasi" (1966) asarida jamiyatni insonlar tomonidan konstruktiva qilingan reallik deb hisoblaydi va ziddiyatlarni ta'rif va maqsadlar o'rtasidagi tafvut deb talqin etadi[8].

F. Xorkxaymer va T. Adorno rahbarligidagi kritik (tanqidiy) nazariya (Marksizmning neomarksist talqini) asosida Frankfurt maktabi tanqidiy nazariyasini ishlab chiqdi. Fuko ijtimoiy ziddiyatlarni hokimiyat, media va ideologiyalar orqali shakllanadigan madaniy gegemoniya bilan bog'laydilar. Bunday yondashuvlarda ziddiyat - bu madaniy zulm va ijtimoiy adolatsizlikka reaksiya sifatida namoyon bo'ladi[9].

Ijtimoiy ziddiyatlarning postmodern talqini (M. Fuko, J. Liotar) falsafasida ziddiyatlar diskurs va hokimiyat o'rtasidagi munosabat sifatida ko'riladi. M. Fuko ta'kidlashicha, har qanday hokimiyatni amalga oshirish jarayonida muqobil pozitsiyalar va reaksiyalar paydo bo'ladi. Bu esa "tana bilan boshqarish" va "bilim-hokimiyat" ziddiyatini keltirib chiqaradi[10].

O'zbek tadqiqotchilari konsepsiyalarida jumladan, I. Saifnazarov - ijtimoiy ziddiyatlarni jamiyatdagi modernizatsion o'zgarishlar bilan bog'laydi. Uning fikricha, ziddiyatlar - "muvozanatsizlik holatlari" bo'lib, ularni bosqichma-bosqich tahlil qilish va kompleks yondashuv zarur[11].

Medialar orqali ziddiyatlar nafaqat tarqatiladi, balki yaratiladi ham. Medialar yoki ijtimoiy tarmoqlar ma'lum bir voqealarni turli mafkuraviy ramkalarda ko'rsatib, jamiyatda qarama-qarshilik muhitini yuzaga keltiradi[12]. M.Sh. Sharifxodjayev ijtimoiy ziddiyatlarning mafkuraviy va madaniy omillari haqida yozib, ularni mafkuraviy muvozanatni ta'minlovchi muhitlar orqali bartaraf etishni taklif etadi[13]. I.Saifnazarov ziddiyatlar zamonaviy O'zbekistonda iqtisodiy o'zgarishlar, axborot muhiti, urf-odatlar va diniy bag'rikenglikka bo'lgan munosabatlar bilan bog'liq holda yuzaga kelishi mumkinligini ko'rsatadi[14]. Bu nazariyalar ijtimoiy ziddiyatlarning semiotik (belgilar orqali) va kommunikativ kelib chiqishini ta'kidlaydi.

Turli nazariy qarashlar ziddiyatni har tomonlama yoritadi va uning ijtimoiy mexanizmlarini chuqurroq tushunishga yordam beradi. Ziddiyat - faqat xavf emas, balki jamiyatning taraqqiyotga yetaklovchi harakatlantiruvchi kuchi sifatida qaralishi zarur. Zamonaviy jamiyatlarda ziddiyatlarni hal etishda institutsional mexanizmlar, dialog madaniyati, aql va ma'naviyat uyg'unligi muhim ahamiyatga ega. Ijtimoiy ziddiyatlar - har qanday jamiyatdagi tabiiy va zaruriy holatdir. Ularni inkor etish emas, balki anglash va boshqarish muhim.

Xulosa va takliflar. Ijtimoiy ziddiyatlarni tahlil qilish va ularni falsafiy va ijtimoiy tushunish zamonaviy jamiyatga xos bo'lgan jarayonlarni o'rganishning muhim yo'nalishi hisoblanadi. Ushbu ish doirasida ijtimoiy qarama-qarshiliklarning asosiy belgilari, sabablari va dinamikasini ochib beruvchi turli nazariy modellar va konseptual yondashuvlar o'rganildi. Turli falsafiy maktablar nuqtayi nazaridan ijtimoiy kontekstdagi ziddiyatlarning ma'nosi va vazifalarini talqin qilishga alohida e'tibor berildi. Tahlilning markaziy elementlaridan biri jamiyatdagi ijtimoiy ziddiyatlarning kelib chiqishi, namoyon bo'lish shakllari va belgilanishi haqidagi turli mutafakkirlarning qarashlarini o'rganish edi.

Ramziy interaksionizm ziddiyatlarni subyektiv idrok etishga urg'u beradi. Erving Goffman ta'kidlashicha, "ijtimoiy o'zaro ta'sir teatr tomoshasiga o'xshaydi, bu erda nizolar umidlar va talqinlarning nomuvofiqligidan kelib chiqadi"[19]. Bu ziddiyatlarning paydo bo'lishi va rivojlanishida aloqa va ramziy ma'nolarning rolini tushunish muhimligini ta'kidlaydi.

Ijtimoiy ziddiyatlarga yondashuvlar ham ijtimoiy-falsafiy qarashlarga bog'liq. Masalan, liberal nazariyalar, odatda, shaxs huquq va erkinliklarining muhimligini ta'kidlaydi, radikal va marksistik yondashuvlar esa ijtimoiy tengsizlik va sinfiy kurashga e'tibor beradi. Hozirgi siyosiy voqelikda ijtimoiy qarama-qarshiliklar markaziy o'rinni egallab, aholining qarashlarini shakllantirishga, siyosiy kuchlar faoliyatiga, davlat choralari ko'rishga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

Shunday qilib, bizning tadqiqotimiz ijtimoiy ziddiyatlarni tahlil qilish zaruriyati va ularga ijtimoiy-falsafiy yondashuvlarga qaratilgan. Bu zamonaviy jamiyatning tuzilishini tushunish va uning barqaror rivojlanishini ta'minlash uchun juda muhimdir.

ADABIYOTLAR

1. Jumayev R.Z. Konfliktologiya asoslari / R. Z. Jumayev, U. A. Ubaydullayev, B. A. Xo'janov. – Toshkent: "Akademiya" nashriyoti. 2000. – 207 b.
2. Kozer L. Sotsialnye konflikty: vyrazheniye, preobrazovaniye i razresheniye // Amerikanskiy sotsiologicheskiy obzor. – 1983. – T. 48, № 6. – S. 735–758.; Kozer L. Prodoljeniyе issledovaniy sotsialnogo konflikta. — Nyu-York: Free Press, 1967. –S. 62.
3. Darendorf R. Elementy teorii sotsialnogo konflikta // Sotsiologicheskiye issledovaniya. – 1994. – № 5. – S. 114–124.
4. Djordj Gerbert Mid i Gerbert Blumer. "Simvolicheskiy interaksionizm: Perspektivy i metod" M. 1969. –S. 93-112.
5. Marks K., Engels F. Nemeskaya ideologiya. — Moskva: Politizdat, 1988. – S.74.
6. Saifnazarov I. Sotsialnye konflikty i ix vliyaniye na bezopasnost obuestva. – Tashkent: Fan, 2016. – 240 s.
7. Ansupov A.Ya., Shipilov A.I. Konfliktologiya: uchebnik dlya vuzov. – M.: Infra-M, 2007. – 496 s.
8. Berger P., Luckmann T. The Social Construction of Reality. — New York: Anchor Books, 1966.
9. Xorkxaymer M., Adorno T. Dialektika Prosvещeniya. — M.: Respublika, 1997.
10. Foucault M. Discipline and Punish: The Birth of the Prison. — Vintage Books, 1995.
11. Saifnazarov I.S. O'zbekiston jamiyatida ijtimoiy munosabatlar va ziddiyatlar. — Toshkent: Fan, 2014.
12. McCombs, M., & Shaw, D. The Agenda-Setting Function of Mass Media. — Public Opinion Quarterly, 1972.
13. Sharifxodjayev M.Sh. Globallashuv sharoitida mafkuraviy barqarorlikning nazariy va amaliy asoslari. — Toshkent: Ma'naviyat, 2018.
14. Saifnazarov I. Jamiyatda ijtimoiy ziddiyatlar va ularning boshqarilishi. — Toshkent: Ijtimoiy fikr, 2017.